

PSIXODIAGNOSTIKANING PSIXOLOGIYA FANLARI TIZIMIDAGI O'RNINI

Kamola Mahmudova

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası PhD., v.b., dotsenti

Psixodiagnostika psixologiya fanining mustaqil yo'nalishi bo'lib, shaxsning psixik jarayonlari, xususiyatlari va individual fazilatlarini o'lchash, baholash hamda ilmiy talqin qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Psixologiya inson ruhiyati va psixik jarayonlarini o'rganadigan nazariy fan bo'lishi bilan birga, bugungi kunda turli sohalarida qo'llaniladigan amaliy intizom sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inson shaxsining har tomonlama o'rganilishi, individual farqlarning aniqlanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida hamda mehnat faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, psixologiyaning amaliy yo'nalishlaridan biri — psixodiagnostika alohida ahamiyatga ega. Psixodiagnostika metodlarini ishlab chiqish, ularni ilmiy asoslash va amaliyotga tadbiq etish ushbu fanning markaziy vazifasini tashkil etadi.

Psixodiagnostika quyidagi asosiy psixologiya bo'limlari bilan bevosita bog'liq:

- **Umumiy psixologiya** – psixik jarayonlar nazariyasi diagnostikaning ilmiy poydevorini yaratadi.
- **Yosh davrlari psixologiyasi** – diagnostika jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olish zarur.
- **Differensial psixologiya** – individual farqlarni o'rganish psixodiagnostikaning asosiy vazifalaridan biridir.
- **Pedagogik psixologiya** – ta'lim jarayonida o'quvchilarni baholash va rivojlantirish diagnostikasiz mumkin emas.
- **Klinik psixologiya** – psixik buzilishlarni aniqlashda diagnostika hal qiluvchi rol o'ynaydi.
- **Neyropsixologiya** – miya faoliyati bilan psixik jarayonlar bog'liqligini testlar orqali aniqlaydi.

Demak, psixodiagnostika barcha psixologik tadqiqotlar va xizmatlarning markazida turadi.

Psixodiagnostika faniga turli olimlar tomonidan bir qator ta'riflar berilgan:

- A.A. Bodalev va B.V. Stolin fikricha, psixodiagnostika — shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya sohasi.
- K.M. Gurevich psixodiagnostikani insonlarning psixologik va psixofiziologik belgilariga ko'ra tasniflash hamda farqlash metodlari haqidagi fan sifatida talqin qiladi.

• R.S. Nemov psixodiagnostikani individ yoki guruhning psixologik rivojlanish darajasi, psixik holati va xususiyatlarini aniq baholash, baholash metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha sifatida tariflaydi.

“Psixodiagnostika” atamasi dastlab tibbiyot amaliyotida qo'llangan bo'lib, G. Rorshaxning 1921-yilda chop etilgan asari bilan keng ommalashgan. Keyinchalik uning mazmuni kengayib, normal rivojlanishdan og'ishlarni aniqlash bilan bir qatorda, shaxsning psixik xususiyatlarini baholashni ham qamrab oldi.

Psixodiagnostikaning rivojlanishida 1950–1960-yillar muhim ahamiyat kasb etib, bu davrda bolalarning aqliy taraqqiyotini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. A.A. Lyublinskaya nutq va uning funksiyalarining rivojlanishini, A.R. Luriya faoliyatni boshqarishda nutqning rolini, A.N. Leontyev va A.V. Zaporozhets psixik jarayonlar rivojlanishida faoliyatning o'rmini, D.B. Elkonin esa bog'cha yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining etakchi rolini o'rgandi. Ushbu tadqiqotlar ta'lim va tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi. Psixodiagnostikada sifat tahlili yondashuvi Z.I. Kalmikova, G.A. Vardanyan, L.A. Venger, K.N. Gurevich, D.B. Elkonin va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida keng qo'llanildi. Psixologik diagnoz sinalluvchining individual xususiyatlari, psixik holati va rivojlanish darajasini tahlil qilish orqali beriladigan ilmiy asoslangan xulosa bo'lib, u faqat natijalarni tasvirlash bilan cheklanmay, balki psixik hodisaning kelib chiqish sabablari, rivojlanish oqibatlari va kelgusidagi taraqqiyot yo'nalishlarini ham izohlab beradi.

Psixodiagnostika faqat psixologiya bilan cheklanib qolmay, ko'plab boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq:

- **Biologiya va fiziologiya** – nerv tizimi, miya tuzilishi va refleks mexanizmlari diagnostika natijalarini talqin qilishga yordam beradi.
- **Pedagogika** – o'quvchilarning rivojlanish darajasini baholashda diagnostik metodlar qo'llanadi.
- **Sotsiologiya** – guruh va jamoa xulqi diagnostikasi ijtimoiy tadqiqotlar bilan bog'langan.
- **Tibbiyot** – klinik tashxis qo'yishda psixodiagnostika muhim bo'lim hisoblanadi.
- **Statistika** – test natijalarini qayta ishlash, chegaraviy mezonlar va normativlarni belgilashda qo'llanadi.
- **Matematika va informatika** – kompyuter diagnostikasi va adaptiv testlash mexanizmlarini yaratishda asosiy omil.

Bu integratsiya psixodiagnostikaning ilmiy aniqligini ta'minlaydi va uni multidisiplinar soha sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishonova Z.T., va boshqalar. Psixodiagnostika : o'quv qo'llanma. — Toshkent : 2008.

2. Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Abdiyeva S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya : o'quv qo'llanma. — Toshkent : Tafakkur bo'stoni, 2011.
3. Toshimov R.Y., G'oziyev E.G'. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya : o'quv qo'llanma. — Toshkent : TDPU, 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika : o'quv-uslubiy qo'llanma. — Toshkent, 2010.
5. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. — Москва : ИЦ «ВЛАДОС», 2005.

